

MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNESNI YANADA RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI

Alijonova Kumushxon Erkinboy qizi

Andijon davlat texnika instituti assistenti

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida innovatsiyalarni joriy etishning dolzarbligi, ahamiyati, usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Kichik biznes sohasida innovatsiyalarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Innovatsiyalar kichik biznesning iqtisodiy barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, maxsulot sifatini yaxshilash va yangi bozorlarni egallashdagi asosiy vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda innovatsiyalarni qo'llash natijasida daromad o'sishi, resurslardan samarali foydalanish, mahsulot sifatining yaxshilanishi, boshqa tomondan iste'molchilarning talab va ehtiyojlarining to'laroq qondirilishi kabi ijobiy natijalar qayd etilgan. Shu jumladan, innovatsiyalarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar – moliyaviy cheklovlar, texnologik infratuzilma yetishmovchiligi va malakali kadrlar tanqisligi tahlil qilinadi.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror sur'atlarda o'sishi va rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'rni nihoyatda katta ekanligini alohida ta'kidlash joiz.

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, asosan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholi bandligi holatini, yalpi ichki mahsulotning tarkibi va sifatini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Kichik biznesni rivojlantirish moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish, raqobatbardosh bozor mexanizmining kompleks sintezi va yirik, o'rta hamda kichik hajmdagi mahsulotlarni davlat tomonidan tartibga solishni o'z ichiga olgan mulk shakllarining kombinatsiyasi va mos iqtisodiy modelni shakllantirishga qaratilgan global tendensiyalarga javob beradi.

Raqobatbardosh bozor sharoitida kundan-kunga ushbu sektorni rivojlantirish uchun innovatsiyalarni kengroq joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Innovatsiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samaraliroq foydalanish va yangi bozorlarni ochish uchun asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati juda yuqori bo'lib, ushbu sektor yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibining katta qismini tashkil etadi va ishchi kuchining anchayin sezilarli qismini band qiladi. Shu o'rinda, kichik biznesda innovatsiyalarni qo'llash iqtisodiy va ijtimoiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan innovatsiyalarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samaraliroq tashkil etish hamda optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, “2017-2021 yillar uchun Harakatlar strategiyasi” doirasida kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, eksport hajmini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish uchun qulay muhit yaratishga katta e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi. Kichik biznesda innovatsiyalarni qo'llashning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri raqamli texnologiyalarni joriy etishdir.³⁰

Kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. U aholi bandligini kengaytirish va daromadlarini oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi hamda jamiyatdagi ehtimoliy qarama-qarshiliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznes raqobatni kuchaytiradi, iste'molchilar uchun sifatli mahsulot va xizmatlarni raqobatbardosh narxlarda taklif etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi muhim sohalarda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi.³¹

Shu jumladan Respublikamiz YaIMda ham kichik biznesning ulushi tobora oshib bormoqda. Quyidagi O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayorlangan jadvaldan ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Viloyatlar	2022-yil, % da	2023-yil, % da	2024-yil, % da
O'zbekiston Respublikasi	71,8	73,1	74,5
Qoraqalpog'iston	55,8	56,6	57,3
Andijon	79,9	81,2	82,4
Buxoro	79,2	80,0	80,7
Jizzax	84,4	85,0	85,5
Qashqadaryo	65,1	66,3	67,5
Navoiy	47,9	49,5	51,0
Namangan	79,9	80,8	81,6
Samarqand	81,8	82,6	83,3
Surxondaryo	78,7	79,6	80,4
Sirdaryo	76,5	77,4	78,2
Toshkent viloyati	63,6	64,8	66,0
Farg'ona	70,6	71,7	72,8
Xorazm	78,3	79,3	80,2
Toshkent shahri	64,2	65,3	66,4

Manba: Statistika ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. 2022–2024-yillar davomida respublika bo'ylab ushbu sektorning iqtisodiyotdagi ulushi 71,8% dan 74,5% gacha ko'tarilgan. Hududiy tahlillar ham shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning ahamiyati ko'pchilik viloyatlarda sezilarli darajada oshgan. Masalan, Andijon

³⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi 2017-yil 7-fevraldagi PF -4947-sonli farmoni.

³¹ “Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari” Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 1025-1030-betlar

viloyatida 2022-yilda 79.9 % bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 82,4% ga yetgan. Bu viloyatda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati ancha o'sgan.

Bugungi kunda kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yetakchi omil bo'lib kelmoqda. Innovatsion rivojlanish jarayonida turli omillar kichik biznesning o'sishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, avvalo, kichik biznes subyektlarining innovatsiyaga bo'lgan ehtiyoji o'rganib chiqish zarur hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy talablaridan biridir. Innovatsion yondashuvlar kichik korxonalarni yanada raqobatbardosh, samarador va barqaror rivojlanishga yo'naltiradi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi, ilg'or texnologiyalardan foydalanish va innovatsion madaniyatni shakllantirish orqali kichik biznes subyektlari o'z salohiyatini to'liq namoyon qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017-yil 7-fevraldagi PF -4947-sonli farmoni.

2. Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li "Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari" nomli maqola Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 1025-1030-betlar

3. Гусев А.К., Жеребцов В.И. Малый бизнес и инновации: основные проблемы и пути решения

4. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик дарслик. Д.С. Қосимова. 2020-й.

5. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик дарслик. Балтабаев М., Қосимова, Эргашходжаева Ш.Ж., Самадов М. 2015-й.

6. Alijonova Kumushxon "Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari" nomli maqola. Miasto Przyszłości Kielce 2024, Polsha.